



QARATQICH KELISHIGI MAKTAB DARSLIKLARIDA KELISHIKMI YOKI SO'Z BIRIKMASI SIFATIDA O'QITILISHI KERAK

Abdullayev Islombek

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
"O'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi
2-bosqich magistranti
Gmail-abdullayevislombek129@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17370514>

Annotatsiya: Ushbu maqolada qaratqich kelishigining morfologik va sintaktik xususiyatlari, uning so'z birikmasi tarkibidagi roli, semantik munosabatlar ifodalanishidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, qaratqichli so'z birikmalarining turlari va ularning nutqdagi funksional yuklamasi misollar orqali yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: kelishiklar, so'z birikmasi, morfologik va sintaktik xususiyatlar, semantik munosabatlar, qaratqichli so'z birikmalari, so'z birikmasi va bog'lanish o'rtasidagi farqlar.

So'z birikmalari ikki turli bo'ladi: **tobe birikma** va **teng birikma**. Qadimgi turkiy tilda ham so'z birikmalari ana shunday ikki turli bo'lgan. Tadrijiy taraqqiyot natijasida so'z birikmalarini tashkil etgan qismlarning shakllanishi va o'zaro bog'lanish usulidagina ma'lum o'zgarishlar ro'y berdi¹.

O'zbek tilshunosligida so'zlarni bir-biriga bog'lash va sintaktik tahlilini amalga oshirishda so'z birikmasi muhim o'rin tutadi. So'z birikmalarining tuzilish tarkibini aniqlash, bog'lanish usul va yo'llarini tahlil qilish bugungi kunda ham murakkab hisoblanadi. Mazkur maqolamizda o'zbek tilshunosligidagi qaratqich kelishigining so'zlarni bir-biriga bog'lanishidagi munosabati o'rganildi.

Nutqda tushunchalarni aniqroq va muayyanroq ifodalashga majbur bo'lib qolamiz, bu esa o'z navbatida noaniq tushuncha ifodalovchi so'z o'rniga aniqroq tushuncha ifodalovchi so'z birikmasini afzal qilib qo'yadi. Masalan: ochmoq – tez ochmoq. Bunda biz birinchi so'zda bir ish harakatning to'liq bajarilganligini ko'rishimiz mumkin, ikkinchi holatda esa nutqda voqea-hodisaning tezda ro'y berishini kuzatishimiz mumkin. Bunda jarayon yanada aniqroq yoritib beriladi. Buning asl sababi esa so'zlar orasidagi bog'liqlik va birikuvdir va bu jarayon natijasida yangi tushuncha paydo bo'lmoqda. Bu jarayondan ko'rinadiki birgina so'z bilan jarayonni to'liqligicha yoritib bo'lmaydi. Ammo so'z birikmasi ham so'z ham tushunchani ifodalaydi. So'z orqali ifodalanayotgan tushuncha noaniq bo'lgandagina biz so'z birikmalaridan foydalanamiz va bunda ikki tushuncha ham o'z mustaqilligini saqlagan holda nutqda jilolanadi. Ho'sh so'z birikmasini yuzaga chiqaruvchi vositalar o'z vazifasidami yoki qo'shimcha vazifani bajarishgami xoslangan?!

So'z o'z ma'noviy imkoniyatini to'laroq va aniqroq ifodalash uchun boshqa bir mustaqil so'zga ehtiyoj sezadi. Bu so'z uning ma'noviy ehtiyojini to'dirishi uchun ham ma'noviy, ham grammatik jihatdan unga muvofiq bo'lishi kerak. Buni yanada aniqroq anglash uchun quyidagi misollarni keltirsak maqsadga muvofiq bo'ladi:

- mevaning yemoq;
- osmonni ushlamoq;
- Ramazon kuldi;

¹ Abdurahmonov G., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent 2008 - yil – B-32 .

– sovg'ani bermoq;

Birikmalarning birinchisida (meva) va (yemoq) so'zkari ma'noviy jihatdan muvofiq bo'lib biroq ularning grammatik shakli (qaratqich kelishigi) mos emas. Ikkinchi birikuv(osmonni ushlamoq)da so'zlar grammatik shakli jihatdan mos bo'lsa-da, ma'noviy jihatdan bog'lanmaganligini ko'rishimiz mumkin. Uchunchi birikuvda a'zolar ham ma'noviy, ham shakliy jihatdan muvofiqdir. Ular birikuvchi tushuncha emas fikr ifodalaydi. Ohirgi birikuvda esa so'zlar hokim va tobe munosabatlar asosida shakllangan. Bunda ham ma'noviy, ham grammatik bog'liqlik asosida so'zlar bir-biriga bog'langan. Bundan ushbu xulosalarga kelishimiz mumkin:

- birdan ortiq mustaqil so'z qatnashishi kerak;
- so'zlarning ma'noviy va grammatik jihatdan mosligi;
- tobelik;
- yangi tushunchani ifodalashi kerak.

So'z birikmasi uchun ushbu 4 ta xususiyat bo'lishi shart, agarda ushbu shartlardan birortasi qatnashmasa yuqorida keltirgan misollarimizda kuzatilgan jarayonlar paydo bo'ladi va bu esa so'zlovchining nutqdagi fikrlarini to'la to'kis yetkazib berolmay qolishiga sababchi bo'ladi.

So'z birikmasi aslida qanday yuzaga chiqadi? Hozirgi kunda so'z birikmasi deyilganda asosan hamma maktab darsliklaridagi ma'lumotlar asosida mustaqil fikrini aytadi. Ammo nima uchun so'z birikmasi va so'zlarning o'rtasidagi bog'lanish usullari haqida o'ylashmaydi?! Muammo aynan mana shu yerda yuzaga chiqadi. So'z birikmasi aynan ikki so'zning ma'noviy, grammatik, tobelik munosabatlari asosida shakllanadi va yangi ma'noni yuzaga chiqaradi. So'zlar o'rtasidagi bog'lanishda esa asosan ikki so'z ma'noviy, grammatik va tobelik munosabatlari asosida bog'lanadi, ammo yangi ma'noni yuzaga chiqarmaydi. Bu jarayonda asosan kelishiklar so'zlarni bir-biriga bog'lash uchun qo'llanilgan. Men bu gapim bilan shuni aytmoqchimanki, biz asosan so'z birikmasi va so'zlarning bog'lanish tartibi va bu jarayonlarning farqini bilishimiz kerak deb bilaman. Asosan kitoblarda so'z birikmasi umumiy tushuncha asosida yuritiladi. Bu fikrga men qarshiman. Biz so'z birikmasi va so'zlarning bog'lanish shakllarini alohida-alohida o'rganishimiz shart. Bu jarayonni amalga oshirilsak "O'zbek tili"da yasama so'zlar ko'payadi hamda so'z boyligimiz ham ortadi. Masalani bir tomonlama emas har tomonlama o'rgansak maqsadga erishamiz deb bilaman.

Qaratqich kelishigining vazifasi qanday?! Ikki so'zni bog'lash bilan birga ular o'rtasidagi munosabatni ma'noviy, grammatik va tobelik asosida ba'zan yangi so'zni ham yasay oladi. Biz sanab o'tgan xususiyatlar so'z birikmasiga oid. Ammo biz buni maktab darsliklarida kelishiklar mavzusida qaratqich kelishigi sifatida o'rganamiz. Bu fikr qay darajada to'g'ri? Maktab darsliklarida qaratqich kelishigini kelishik sifatida emas balki so'z birikmasi tarkibiga kiritgan holda o'rgatish kerak deb bilaman. Fikrimizni aniqroq asoslaydigan bo'lsak qolgan kelishiklar²(bosh, tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish) asosan so'zlarni bir-biriga ma'noviy va grammatik tomonlama bog'lashda ishtirok etishadi. Mening fikrim esa qaratqich kelishigini kelishik sifatida emas balki so'z birikmasi sifatida maktab

² "Ona tili" Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabyeva D., Mirzaahmedov A., Toshkent "MA'NAVIYAT" 2017, –B-54



darsliklarida qo'llashimiz kerak deb bilaman. Agar maktab darsliklarida bu jarayon izga solinsa o'quvchilarda so'z birikmasi va so'zlarning bog'lanish usullari haqida fikri uyg'onadi.

Qaratqich kelishigi asosan 3 xil shaklda qo'llaniladi:

- belgili;
- belgisiz;
- zanjirli

Ushbu bog'lanish usullari qaratqich va qaralmish asosida shakllanadi. Bunda belgili kelsa, birikmada qarashlilik ma'nosi, belgisiz kelsa umumiylik ma'nosi hamda zanjirli bog'langanda so'zlar zanjir kabi tizilib ma'noni yanayam oydinlatishga harakat qilinadi. Bu jarayon natijasida kelishiklardagi so'zlar birikuvidagi "-ni" va "-ning" qo'shimchalarini almashtirib qo'llashdagi xatolar kamayadi. Misollar yordamida buni ko'rib chiqishimiz mumkin:

- Akamni telefoni emas, "Akamning telefoni";
- Olmani narxi emas, "Olmaning narxi";
- Choyni narxi emas, "Choyning narxi";

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi birikmalar yordamida ko'rishimiz mumkinki, kelishik qo'shimchasi bilan so'z birikmasini farqlagan holatda maktab darsliklarida kiritganimiz bilan og'zaki nutqimiz bir-biriga mos kelmasligi bu muammoning aslida grammatikada emas og'zaki nutqdaligini ko'rsatadi, bu esa o'z navbatida "Singormonizm" qoidalarining hamon tilimizda saqlanayotganligidan dalolat beradi, ya'ni nafaqat so'zlar balki so'z birikmalari va qo'shimchlar ham ushbu qonuniyat asosida haligacha mavjudligining isboti deb bilaman.